

O'ZBEK ADABIYOTIDA OT OBRAZI TALQINI

Ko'chiyeva Shabnam Isomiddin qizi

Termiz davlat universiteti Filologiya fakulteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7315733>

Annotatsiya. Badiiy adabiyotda ot obrazining o'ziga xosligi. Xalq og'zaki ijodida otlarning qahramonlar hayotidagi o'rni. "Ot emas, odam" ta'rif haqida. Yozuvchilarning o'z asarlarida otlarga bergan ta'rif va tafsiflari.

Kalit so'z: ot, xalq og'zaki ijodi, Boychibor, G'irko'k, Tarlon, obraz, hadis, qorabayr, ko'pkari, uloq, Do'nan.

ТРАКТОВКА ОБРАЗА ЛОШАДИ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. Уникальность образа лошади в художественной литературе. Роль лошадей в жизни героев фольклора. Об определении «человек, а не лошадь». Определения и описания, данные писателями лошадям в их произведениях.

Ключевые слова: конь, фольклор, Бойчибор, Гиркок, Тарлон, образ, хадис, Карабайр, Копкари, Козерог, Донан.

THE INTERPRETATION OF THE IMAGE OF A HORSE IN UZBEK LITERATURE

Abstract. The uniqueness of the image of a horse in fiction. The role of horses in the lives of heroes in folklore. About the definition of "a man, not a horse". Definitions and descriptions given by writers to horses in their works.

Key words: horse, folklore, Boychibor, Ghirkok, Tarlon, image, hadith, Karabayr, Kopcari, Capricorn, Donan.

KIRISH

Ot-vafodorlik va sadoqat timsoli. Tarixdan ma'lumki, kishining rivojlanishi va takomillashuvi jarayonida turli xil hayvonlar va predmetlarning o'ziga xos o'rni bor. Ayniqsa, ot qadimdan insonga yo'ldosh, yaxshi hamroh bo'lib kelgan. Xalq og'zaki ijodida ham ot qahramonlarimizning ajralmas yo'ldoshi sifatida keltirilgan. "Alpomish" dostonida Boychibor Alpomishning xos oti, uning barcha safar va sarguzashtlarida ajralmas yo'ldosh. Boychibor ot dostonning poyga qismida asosiy vazifani bajarib bergan.

"Ravshan" dostoniga yuzlanadigan bo'lsak, ushbu dostonida ot ba'zi muammolarning yechimi bo'lib kelgan. Masalan, Go'ro'g'lining G'irko'k oti Hasanxonga Ravshanni qutqarish uchun uch oylik yo'lni yigirma kunda bosib o'tishida ko'maklashadi. Bu yerda otga asar qahramonining haloskori sifatida qarashimiz mumkin.

"Go'ro'g'li" dostonida G'irko'k- fantastik uslubda yaratilgan obraz. U gapga tushunadi, zarur paytda Go'ro'g'liga yo'l-yo'riq ko'rsatadi, ehtiyot qiladi, dushmanlarni tishlab, tepib qaytaradi. Har qaysi dostoniga e'tibor qaratsak ham, qahramon boshiga kulfat kelganda otlar achinadi, yig'laydi; yarador bo'lib, behush qolgan egasini ustida bexatar yerga olib boradi, qo'riqlaydi; asirga tushib qolsa, eliga xabar beradi. Doston qahramonlari hayotini otlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

METOD VA METODOLOGIYA

Ot barakali va aqlli jonivor. Bobolarimizning so'zlariga quloq solsak, ot bor xonadonda rizq bo'larkan, u egasining xonadoniga rizq tilarkan. Hattoki o'z otini sotgan xonadondan baraka ketadi, degan qarashlar ham bor. Otlarning aqlli bo'lishiga kelsak, ularning ko'pchiligi odam

tanlaydi. Ularning ham yoqtiragan va yoqtirmaydigan odamlari bo'ladi. Ot yomonlikni oldindan sezadi va xo'jayinini bundan ogohlantiradi. "Do'nan" hikoyasida do'nanning ilonni o'ldirib, bolani qutqarib qolganligi voqeasi bunga misol.

"Ot kishnagan oqshom" nomli asarda Qurbonnazar va Ziyodulla chavandoz o'rtasidagi suhbatdan "ot ko'ngli ayol ko'ngliday nozik" bo'lishi, "ayol boqqan ot yaxshi ot" bo'lishi va bunga sabab esa ayolning muloyim tabiati, hamisha uyda bo'lishi, kishnagandan yemini va suvini berishi ekanligi aytilgan.

Otlar el orasida pokiza jonivor deya tan olingan. Hadisi sharifda keltirilishicha Payg'ambarimiz (s.a.v) shunday degan ekanlar: "Ajodlaringizga suzishni, otishni va ot minishni o'rgatishni".

Azaldan ot va inson o'rtasida anglab bo'lmay yaqinlik bor. Ot o'z xo'jayini bilan bir butun bo'ladi. Ular bir birini his etadi va tushunadi. Bu o'zgacha va takrorlanmas muloqot shaklidir. Balki badiiy adabiyotda otlar haqida asarlar yozilishiga shular sababdir.

TADQIQOT NATIJASI VA MUHOKAMA

Bugungi kunda ham ot bilan bog'liq ko'p asrlig qadriyatlarimiz bor va ular asarlarimizda o'z aksini topgan. Yana bir bor Tog'ay Murodning 1979-yilda bitilgan "Ot kishnagan oqshom" qissasiga yuzlansak. Asar bosh qahramoni Tarlon ot kitobxon qalbiga qarddon bir odamdek kirib keldi. Ziyodulla chavandoz asar so'ngida odam bolasi qilolmagan ish- odamiylik, yordam berish, jon fido etish kabi xislatlarning bari Tarlonda- otda mujassam ekanligini tushunadi va unga shunday deydi:

"Ayo tarlon, sen mening birodarimsan, birodarim. Bo'ldi, men endi ularni birodarim demayman. Mening birodarim sensan, Tarlon...

Ayo Tarlon, sen mening qiyomatlik birodarimsan, qiyomatlik birodarim..." Bu asar kitobxon uchun ot boqishga kerakli maslahatlar va yo'l yo'riqlardan iborat qo'llanma vazifasini o'taydi.

Shukur Xolmirzayevning "Ot egasi" hikoyasida esa ot- Inodning uchinchi boyligi deya keltirilgan: "...bu otning olis avlodi muallimning otasiga ham vaqtida xizmat qilgan, uni ko'p jang-u jadallardan omon olib o'tgan edi. Lekin Inodning qo'lidagi ushbu qorabayr ham unga sodiq xizmatini o'tardi, ikki bor anavi soyni sel suvi bosganda egasini olib chiqqan, to'rt yildan buyon ko'pkarilarda uloqni muttasil shu ayirib chiqar edi". Ushbu qorabayr ot davr muammolarining qurboniga aylandi. Ya'ni "shaxsiy ot saqlash man qilingan" o'sha chirkin davr.

Undan tashqari, Turob To'laning "Yetti zog'ora qissasi" da keltirilgan "Do'nan" hikoyasida ham ot obrazi o'zgacha ta'riflanadi. Otga Baxshillaning ko'zi bilan qarasak, uning "ot emas, odam" ekanligiga bemalol ishonsak bo'ladi. Do'nanning uxlab yotgan egasini chaqmoqchi bo'lgan ilon boshini majaqlashi ham, boshqa otlardek o'rta ariqdan suv ichib ketavermay, Toshloqdagi buloq suvinigina ichishi ham, xuddi odamlarga o'xshab yo'lning o'ng tomonidan yurishi ham shundan dalolat beradi. Inson va hayvonot olami, yaratilishidan ona tabiatning bir-birini to'ldiruvchi, bir-biriga nihoyatda muhtoj farzandlaridir.

XULOSA

To'g'ay Murod ta'biri bilan aytganda "Ot odamga el bo'ladi! Boisi, otning joni bor, yuragi bor-da!" Ming yillardan beri insonning eng yaqin do'sti hisoblangan mardonavor jonivorimiz badiiy adabiyotimizda qo'llanilib, asarning kitobxonga manzur bo'lishini ta'minlab kelishda davom etishiga ishonamiz.

REFERENCES

1. T. Murod.Ot kishnagan oqshom.Toshkent: Nurafshon-kitob ta'minot,2022
2. Xalq og'zaki ishodi namunalari